
Maxsus qabulxonada monitoring olib borildi

Farg'ona viloyati IIBning vaqtincha maxsus qabulxonada monitoring tashrifi amalga oshirilib, u yerda saqlanayotgan shaxslarning sharoitlari bilan tanishildi. Maxsus qabulxonada jami 139 nafar maxbusni saqlashga mo'ljallangan bo'lsada, hozirda 215 nafar maxbus saqlanayotgani aniqlandi.

Monitoring tashrifida 3 nafar shaxslar bilan yakkama-yakka, 28 nafar shaxslar bilan esa ommaviy suxbatlar o'tkazildi. Suxbat davomida qabulxonadagi xibsxonadagi sharoitlardan va oziq-ovqat ta'minotidan shikoyatlari yo'qligi, ularga nisbatan noqonuniy xarakterli harakatlar yoki qiynoqlar bo'lmaganligini bildirishdi.

Shuningdek, Huquqbuzarlar A.I, Ya.T va O.M lar bilan yakkama-yakka suxbat o'tkazilganida voyaga yetmagan farzandlari uchun 2 oydan ortiq muddat davomida aliment to'lamaganliklari uchun O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksning 47-4-moddasiga binoan 15 sutka ma'muriy qamoq jazosi o'tayotganliklari, hozirda o'zlariga tegishli xulosa chiqargan xolda aliment to'lov pullarini to'lamoqchi ekanliklarini ma'lum qilishdi. Maxsus qabulxonada yaratilgan sharoitlardan hech qanday shikoyatlari yo'qligi, sayrga chiqish, telefon so'zlashuvlaridan qonunda belgilangan tartibda foydalanib kelayotganliklarini bildirdilar.

Tergov harakatlarini o'tkazish uchun mo'ljallangan xonalarni ko'zdan kechirish jarayonida, bu toifadagi xonalar videokuzatuv vositalari bilan jihozlangani va advokatlar istalgan vaqtda advokatlik so'rovnomasi bilan tergov jarayonlarida tasvirga olingan videomateriallarni talab qilib olishi mumkinligi aniqlandi.

Muassasadagi advokat bilan uchrashuv xonasida video-kamera kuzatuv moslamasi o'rnatilgani aniqlandi, xolbuki advokatlar bugungi kunda muassasada saqlanayotganlar bilan moneliksiz uchrashishga, muassasa xodimlaridan xoli suxbat o'tkazishga xaqlidir. Garchand, O'zbekiston Respublikasi "Ma'muriy qamoqni o'tash tartibi to'g'risida"gi Qonunning 27, 28-moddalarida ma'muriy qamoqqa olingan shaxslarni rag'batlantirish va ularga nisbatan qo'llaniladigan intizomiy jazo choralari tartibi belgilangan bo'lsada, maxsus qabulxonada bu haqida biron-bir buyruq chiqarilmagan va belgilangan tartibda rasmiylashtirilmagan. Buyruq chiqarmagan xolda og'zaki ravishda rag'batlantirish choralari ko'rib kelinayotganligi ma'lum qilindi.

Monitoring davomida muassasadagi Ma'muriy qamoqqa olinganlarning ariza va shikoyatlarini ro'yxatga olish kitobi va maxsus muassasada saqlanayotgan maxbuslarni qayd etish kitoblari ko'zdan kechirildi. Har kunlik ro'yxatga olish kitoblari o'z vaqtida to'g'ri qayd etilayotganligi aniqlandi. Muassasadagi saqlanayotganlar uchun sayrga chiqish joylari ham ko'zdan kechirildi.

Undan tashqari, muassasadagi maxbuslarning shaxsiy buyumlarini saqlash va qaytarib berish xonasi ko'zdan kechirildi. Hech kanday muammo yo'q ekanligi, muassasada saqlanayotganlarning shaxsiy buyumlari qaytarib berilishi aniqlandi.

Muassasadagi oshxona ko'zdan kechirilganda saqlanayotgan mahbuslarga taomlar tayyorlanib, oziq-ovqat mahsulotlari to'liq va taomnomaga mos berilayotgani ma'lum bo'ldi. Muassasada saqlanayotganlarga tibbiy yordam ko'rsatish xonasi ko'zdan kechirilganda, feldsher shtati ajratilgan, tibbiy yordam ko'rsatish uchun kerakli dori-darmonlar mavjudligi aniqlandi. Muassasada saqlanayotganlar uchun oshxona va yuvinish xonalari mavjud. Shundan so'ng maxsus qabulxonada xodimlari bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 10 sentyabrda imzolangan "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni mazmun-mohiyati hamda harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslar saqlanadigan joylarda qiynoqqa solish hamda boshqa g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomalaning oldini olish masalalari bo'yicha seminar yig'ilishi o'tkazildi.

Tashrif davomida tezkor xodimlarni qiziqtirgan savollarga javoblar berildi. Aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish choralari ko'rish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

A.Kamilov,

Ombudsmanning Farg'ona viloyati mintaqaviy vakili.